



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya:

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash maqsadida jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur dastur 12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun mutaxassislik fanlaridan mavzular va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga qamrab olgan. Jumladan, jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti, jinoyat qonuni, jinoyat tushunchasi va uning belgilarini, jinoiy javobgarlik va uning asoslarini, jinoyat tarkibining belgilari va elementlari, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari, jazo tizimi va turlari, jazo tayinlash, javobgarlik va jazodan ozod qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov chorlarini tayinlash asoslari, tartibi hamda Jinoyat huquqi Maxsus qismida nazarda tutilgan alohida jinoyatlarning tarkibi va hokazolar yuzasidan mavzular tuzilgan. Shuningdek, jinoyat-ijroiya huquqi fani tushunchasi, jinoyat-ijroiya huquqining predmetini, jazolarni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, jazoni ijro etish asoslari va tartibi, jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplari, jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalari, mahkumni axloqan tuzatish, axloqan tuzatishning asosiy vositalari kabi mavzular ko'rsatilgan.

Tuzuvchilar:

Mirzayev R.I.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, dotsent

Qurbonov D.R.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, jinoyat huquqiy fanlar kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Muqumova M.Z.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, jinoyat huquqiy fanlar kafedrası professori, yuridik fanlar nomzodi

Dastur Yuridik fakultetining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan

KIRISH

Ushbu dastur 12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi mutaxassisligiga oid maxsus fanlar doirasida shakllantirilgan masalalardan tashkil topgan bo‘lib: jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti, jinoyat qonuni, jinoyat tushunchasi va uning belgilarini, jinoiy javobgarlik va uning asoslarini, jinoyat tarkibining belgilari va elementlarini, jinoyat bosqichlarini, ishtirokchilik turlari va shakllarini, bir qancha jinoyat sodir etishni, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlarini, jazoning tushunchasi va maqsadini, jazo tizimi va turlarini, jazo tayinlashni, javobgarlik va jazodan ozod qilishni, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorlarini tayinlash asoslari va tartibini, shuningdek, jinoyat huquqi maxsus qismida nazarda tutilgan alohida jinoyatlarning tarkibini, xususan, shaxsga qarshi jinoyatlar, hayotga qarshi jinoyatlar, sog‘liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, O‘zbekiston respublikasiga qarshi jinoyatlar, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bog‘liq jinoyatlar, o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar, xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, odil sudlovga qarshi jinoyatlar, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar, bo‘ysunish va harbiy sha‘nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlarni qamrab oladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi fani tushunchasi, jinoyat-ijroiya huquqining predmetini, jazolarni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini, jinoyat-ijroiya

huquqining O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rnini, jinoyat-ijroiya huquqi fani va uning jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi, pedagogika, psixologiya va kriminologiya fanlari bilan aloqadorligini, MDH, chet davlatlar va O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligi rivojlanishi tarixini, jinoyat-ijroiya qonunlarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha amal qilishini, jinoyat-ijroiya qonunchiligi va boshqa xalqaro qonun hujjatlarni, ularni qo'llash tartibini, jazoni ijro etish asoslari va tartibini, jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplarini, jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalarini, mahkumni axloqan tuzatishni, axloqan tuzatishning asosiy vositalarini, jamiyatni demokratlashtirish va yangilashni, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish jarayonida jinoyat-ijroiya huquqi fani oldida turgan vazifalari kabi masalalarni qamrab olgan.

ASOSIY MAZMUNI

JINOYAT HUQUQI

1. Jinoyat huquqi fani tushunchasi, predmeti, vazifalari va prinsiplari

Jinoyat huquqi tushunchasi, Jinoyat huquqining predmeti va ularning o'ziga xos jihatlari. Jinoyat huquqini davlatning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqadigan vazifalari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli "Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish" konsepsiyasi asosida). O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi Umumiy qismi tushunchasi. Jinoyat huquqining huquq tizimidagi o'рни va ahamiyati. Jinoyat huquqi va uning boshqa huquq sohalari bilan o'zaro aloqasi (Kriminologiya, Jinoyat-ijroiya huquqi, Jinoyat-protsessual huquqi, Ma'muriy javobgarlik, Xalqaro huquq, Fuqarolik huquqi). Jinoyat huquqi tizimi, Umumiy va Maxsus qismlar va ularning o'ziga xos jihatlari. Jinoyat huquqi prinsiplari tushunchasi, mazmun-mohiyati, tizimi. Jinoyat huquqining qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarining mazmuni va ularning o'zaro farqli jihatlari.

2. Jinoyat qonuni

Jinoyat qonuni tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, uning tuzilishi va tizimining o'ziga xosliklari. Jinoyat qonunining Umumiy va Maxsus qismlari normalari va ularni takomillashtirish masalalari. Jinoyat qonunini liberallashtirish muammolari. (2001-yil 29-avgustdagi Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni va undan keyingi jinoyat qonunlariga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonunlarga muvofiq). Dispozitsiya tushunchasi va turlari. Sanksiya tushunchasi va turlari. Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilish doirasi. Jinoyat qonunining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi. Jinoyat sodir etgan shaxslarni topshirish. Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi. Jinoyat qonunini qabul qilish va uning kuchga kirishi. Jinoyat qonunining bekor bo'lishi. Jinoyat sodir etilgan vaqt tushunchasi. Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi. Jinoyat

qonunini sharhlash. Sharhlashning subyektlari, usullari va hajmiga ko'ra turlari va ularning qo'llashning o'ziga xos jihatlari.

3. Jinoyat tushunchasi

Jinoyat tushunchasi va uning belgilarining ahamiyati. Jinoyatlarni tasniflash va uning huquqiy ahamiyati. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqlash masalalari.

4. Jinoiy javobgarlik va uning asoslari

Jinoiy javobgarlik tushunchasi, asosi va shaxsning jinoiy javobgarligini hal etishda inobatga olinadigan jinoyat-huquqiy jihatlar. Jinoiy javobgarlikning belgisi sifatida jinoyat sodir etgan shaxsga qo'llaniladigan davlat majburlov ta'siri va uni ifodalanishining shakli. "Jinoiy javobgarlik" va "jazo" tushunchalarining o'zaro munosabati. Jinoiy javobgarlikning asoslari, javobgarlikning mazmuni uni qo'llashning o'ziga xos masalalari.

5. Jinoyat tarkibi

Jinoyat tarkibi tushunchasi va uning qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. Jinoyat tarkibining belgilari, elementlari va uning turlari. Jinoyat tarkibining zaruriy va fakultativ belgilari va ularning qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda jinoyat tarkibini to'g'ri belgilashning nazariy va amaliy jihatlari.

6. Jinoyat obyekti

Jinoyat obyekti tushunchasi va uning – umumiy, maxsus va bevosita obyektlarga bo'linishi mazmun-mohiyati. Jinoyat obyektlarini to'g'ri aniqlashning qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. Jinoyat obyektining jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'siri. Asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarning o'ziga xos jihatlari. Jinoyat obyekti va predmeti jinoyat tarkibining muhim elementi sifatida.

7. Jinoyatning obyektiv tomoni

Jinoyatning obyektiv tomonni tushunchasi, uning belgilari. Ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik tushunchasi. Jinoiy harakatsizlik uchun javobgarlikning shartlari. Ijtimoiy xavfli oqibat tushunchasi va turlari. Jinoiy oqibatlarining jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashga ta'siri. Moddiy, formal va kesik tarkibli jinoyatlar va bunday turlarga ajratishning huquqiy ahamiyati. Jinoyat huquqida qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish. Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari va ularning huquqiy ahamiyati.

8. Jinoyatning subyektiv tomoni

Jinoyatning subyektiv tomoni tushunchasi va belgilari hamda ularni qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. Jinoyatning subyektiv tomonining zaruriy va fakultativ belgilari hamda ularning qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati. Ayb – subyektiv tomonning zaruriy belgisi sifatida. Ayb shaklining

qilmishni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashdagi ahamiyati. To'g'ri va egri qasdning o'zaro farqli jihatlari. Jinoiy o'z-o'ziga ishonish va jinoiy beparvolikning o'zaro farqli jihatlari. Jinoiy o'z-o'ziga ishonishning egri qasddan farqlash masalalari. Murakkab aybli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari. Aybsiz holda zarar yetkazish. Jinoyat sodir etishning motiv va maqsadi. Jinoiy javobgarlik va qilmishni kvalifikatsiya qilishda motiv va maqsadning ahamiyati. Jinoyat huquqida xato tushunchasi, turlari va jinoiy javobgarlik hamda qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'siri.

9. Jinoyat subyekti

Jinoyat subyekti, uning belgilari hamda qilmishni kvalifikatsiya qilishda subyektning ahamiyati. Jinoyat huquqida aqli norasolik tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati. Aqli norasolikning tibbiy va yuridik mezonlarining o'ziga xos jihatlari. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni aqli noraso deb topishning huquqiy oqibatlari. Sud tomonidan hukm chiqarilgunga qadar ruhiy kasallikka chalinib qolgan shaxslarning javobgarligi. Mastlik holatida, giyohvandlik vositalari yoki boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikning ayrim muammoli jihatlari. Jinoyatning maxsus subyekti belgilari va uning o'ziga xos jihatlari.

10. Tamom bo'lmagan jinoyatlar

Tamom bo'lmagan jinoyatlarning boshqa jinoyatlardan o'zaro farqi. Alohida turdagi jinoyatlarning tamom bo'lish paytining kvalifikatsiya qilishga ta'siri masalalari. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan masalalari. Suiqasd turlari va ularning o'zaro farqlari. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tushunchasi, asoslari va shartlari. O'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish va uning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan farqi. Jinoyat ishtirokchilarini jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishining o'ziga xos xususiyatlari. Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytishining jinoyat-huquqiy oqibatlari. Moddiy, formal va kesik tarkibli jinoyatlarning tamom bo'lish vaqti qilmishni kvalifikatsiya qilishning muhim belgisi sifatida.

11. Jinoyatda ishtirokchilik turlari va shakllari

Jinoyatda ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv belgilari. Jinoyat ishtirokchilarining qilmishlariga huquqiy baho berish masalalari. Bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi harakatlarining jinoyat-huquqiy jihatlari. Jinoyatda ishtirokchilik shakllarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. Jinoyatda ishtirokchilikning jinoyatga daxldorlikdan farqlash masalalari.

12. Bir qancha jinoyat sodir etish

Bir qancha jinoyat sodir etishning alohida jinoyat sodir etishdan, murakkab tarkibli jinoyatlardan, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlardan farqlash

masalalari. Takroran jinoyat sodir etish, uning turlari va huquqiy ahamiyati. Residiv jinoyatning turlari va ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati. Shaxsni o'ta xavfli residivist deb topish asoslari va tartibi, uning huquqiy oqibatlari.

13. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilish asoslaridan farqi. Kam ahamiyatli qilmishlarning qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlardan farqli jihatlari. Zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishda qilmish jinoiyligini huquqiy baholash masalalari. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etishda farqlash qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilikning qilmish jinoiyligini istisno qiladigan boshqa holatlardan farqli jihatlari. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish masalalari.

14. Jazo tushunchasi va maqsadi

Jinoiy jazo tushunchasi va belgilari. Jinoiy jazoning intizomiy, ma'muriy jazodan va boshqa huquqiy ta'sir choralaridan farqi. Jazoning maqsadi. Jinoiy jazolarni liberallashtirishning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati. Jinoiy jazolarning majburlov xususiyatlari. Jinoiy jazo natijasida iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy cheklanish xususiyatlari.

15. Jazo tizimi va turlari

Jinoiy jazolar tizimi tushunchasi va huquqiy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirishda penalizatsiya va depenalizatsiya masalalari. Jarimani to'lashdan bo'yin tovlashning huquqiy oqibatlari. majburiy jamoat ishlari jazosi va uni tayinlashning ayrim masalalari. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi va uni tayinlashning ayrim masalalari. Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlashning huquqiy oqibatlari. Harbiy xizmatchilarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarning o'ziga xos xususiyatlari. Jinoyat qonunchiligiga penalizatsiya qilingan jazolarni tayinlashning o'ziga xos jihatlari. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishda rejimni tanlashning mazmun-mohiyati. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni keng qo'llash istiqbollari. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash masalalari.

16. Jazo tayinlash

Jazo tayinlashda jinoyat qonuni Umumiy qismi normalarining ahamiyati. Jazo tayinlashni liberallashtirishning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati. Jazo tayinlashda yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashning o'ziga xos jihatlari. Ayrim turdagi jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalalari. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning o'ziga xos jihatlari. Bir necha jinoyat

sodir etganlik uchun jazo tayinlash masalalari. Jazolarning yengilrog'ini og'irrog'i bilan qoplash, qisman yoki to'la qo'shish tartibida jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini. Qo'shimcha jazolarni tayinlashning mazmun-mohiyati. Jazo muddatiga dastlabki qamoq vaqtini qo'shib hisoblashning o'ziga xos jihatlarini.

17. Javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlari

Jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlari. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish masalalari. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishdan farqlash masalalari. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kengaytirish istiqbollari. Javobgarlikdan ozod qilish institutining mazmun-mohiyati.

18. Jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari

Jazodan ozod qilish instituti insonparvarlik prinsipi timsoli sifatida. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning o'ziga xos jihatlarini. Hukmni ijro etish muddatlari. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan muddatlarni qo'llanishi. Qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish. Shartli hukm qilish. Sinov muddati, uning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati. Shartli hukm qilinganlar xulqi ustidan nazorat olib borish. Shartli hukmni bekor qilish. Shartli hukm qilingan shaxs yangi jinoyat sodir etishining huquqiy oqibatlari. Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirganda qo'shimcha jazodan ham ozod qilish. Mehnat qilish qobiliyatini yo'qotish yoki kasallik tufayli jazodan ozod qilish. Harbiy xizmatchilarni sog'lig'ining yomonligi va harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilishi asosida jazodan ozod qilish. Amnistiya akti yoki avf etish jazodan ozod qilish asosi sifatida. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilingan yohud amnistiya akti yoki avf etish asosida jazoni yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etish oqibatlari. Sudlanganlik tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati. Sudlanganlikni olib tashlash tartibi va shartlarining nazariy va amaliy jihatlarini. Sudlanganlik muddatlarini hisoblashning o'ziga xos jihatlarini.

19. Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari. Majburlov choralari qo'llash orqali voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish masalalari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari turlari va ularni qo'llash shartlari. Voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish masalalari.

20. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash asoslari va tayinlash tartibi

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning o'ziga xos jihatlari. Alkogolizm, giyohvandlik, toksikomaniya bilan kasallangan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni tayinlash, uning muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish masalalari.

21. Jinoyat huquqi Maxsus qismining umumiy qoidalari

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy-nazariy jihatlari. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

22. Hayotga qarshi jinoyatlar

Hayotga qarshi jinoyatlarning tushunchasi, turlari, umumiy tavsifi. Qasddan odam o'ldirish tushunchasi, turlari, jinoyat tarkibi. Og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati va u uchun javobgarlik masalalari. Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish, Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish hamda o'zini o'zi o'ldirishga undashning jinoyat-huquqiy jihatlari.

23. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar

Badanga shikast yetkazish tushunchasi, uning tahlili va turlari. Sog'liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlarda ayb, motiv va maqsad. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Badanga biron-bir a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishiga sabab bo'lgan og'ir shikast yetkazish. Badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish. Yengillashtiruvchi holatlarda badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik. Qasddan badanga yengil shikast yetkazishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Qiynashning jinoyat-huquqiy jihatlari.

24. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish. Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort). Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash. Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik. Xavf ostida qoldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

25. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

Nomusga tegishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Besoqolbozlik (erkakning erkak bilan jinsiy aloqa qilishi)ning jinoyat-huquqiy jihatlari. Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

26. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar

Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashning jinoyat-huquqiy jihatlari. Bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, bolani almashtirib qo'yish. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Ko'p xotinli bo'lish. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish. Tilanchilik qilish, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish. O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish. Tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish. Qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi. Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish. Qabrni tahqirlashning jinoyat-huquqiy jihatlari.

27. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar

Odam savdosi jinoyatining jinoyat-huquqiy jihatlari. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish. Odam o'g'rilashning jinoyat-huquqiy jihatlari. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish. Tuhmat va haqorat qilishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

28. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Fuqarolarning teng huquqliligini buzish. Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Shaxsning

sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish. Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarining sir saqlanish tartibini buzish. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Vijdon erkinligini buzish. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish. Mehnat qilish huquqini buzish. Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash. Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

29. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Urushni targ'ib qilish. Agressiya. Urushning qonun va udumlarini buzish. Genotsid. Yollanish. Chet el davlatining harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish. Terrorizm. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik. Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish. Terrorizmni moliyalashtirish. Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

30. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar

Davlatga xoinlik qilish jinoyatining josuslik jinoyatidan farqlash masalalari. Qo'poruvchilik jinoyatining terrorizm jinoyatidan farqlash masalalari. Davlat sirlarini oshkor qilishning davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotishdan farqlash masalalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish va O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

31. O'zgalar mulkini talon-toroj qilish

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyati tushunchasi va uning belgilari. Talon-torojning turlari va shakllari. Bosqinchilik jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari. Tovlamachilik tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishi. Talonchilik tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar va bu jinoyatning bosqinchilik jinoyatidan farqi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata sodir etish. Firibgarlik jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar. O'g'irlik jinoyatida javobgarlikni

og'irlashtiruvchi holatlari. Talon-torojni kvalifikatsiya qilishda yetkazilgan zarar miqdorining ahamiyati.

32. O'zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar

Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish. Mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish. Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

33. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Chet el valyutasini yashirish jinoyatining obyektiv tomon belgilari. Soxta bankrotlik, soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash. Byudjet va smeta-shtat intizomini buzish. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

34. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish jinoyati tushunchasi. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish, shuningdek tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini retsept bo'yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzish. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati. Pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish. Faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug'ullanish. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish. Raqobatchini obro'sizlantirishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

35. Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar

Xususiy mulk huquqini buzish. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turish. Tadbirkorlik subyektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish. Litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish. Imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'lari berishni asossiz ravishda kechiktirish. Tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olish. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish. Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish. Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish. Pul mablag'larini qonunga xilof ravishda o'tkazish yoki olib qo'yish yoxud ularni o'z vaqtida qaytarmaslikning jinoyat-huquqiy jihatlari.

36. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar

Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish. Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish. Foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olish. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslik. Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish. Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

37. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash.

Hokimiyat harakatsizligi. Mansab soxtakorligi. Pora olish va pora berishning jinoyat-huquqiy jihatlari. Pora olish-berishda vositachilik qilish. Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi. Sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi. Sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarini pora evaziga og'dirib olish. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish. G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash. Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunlar hujjatlarini buzish. Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxona, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to'sqinlik qilish. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik. Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, avtomototransport vositalarining davlat raqami belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish. O'zboshimchalik. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish. Belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash. Yer berish tartibini buzish. Yer uchastkasini noqonuniy olib qo'yish. Sug'oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo'lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o'zga shaxsga berishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

38. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar

Aybsiz kishini javobgarlikka tortish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi. Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish). Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini

soxtalashtirish (qalbakilashtirish). Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Sud hujjatini ijro etmaslik. Sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga aralashish. Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomila xamda jazo turlarini qo'llash jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgilari. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish. Yolg'on xabar berish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Yolg'on guvohlik berish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishning jinoyat-huquqiy jihatlari.

39. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Jinoiy uyushma tashkil etish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish. Ommaviy tartibsizliklar. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash tarqatish yoki namoyish etish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish. Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish. Yolg'on axborot tarqatish. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish. Kontrabanda jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. O'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyati tushunchasi, jinoyat tarkibi, javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari. O'qotar qurolning, o'q-dorilarning, o'qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish. Qurolni va uning o'q-dorilarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish. Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish. Pirotexnika buyumlarining qonunga

